



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2022-yil 19-oktabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMI DAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2022-yil 19-oktabr

Toshkent – 2022

O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov – Toshkent, 2022.

Mas’ul muharrir:
Sh. Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

N. Jo‘raqo‘ziyev – ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor
H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor
Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor
M. Xakimova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.
M.Umurzoqova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sh.Bobomurodova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
D.Muhammadiyeva - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
S.Bozorova – katta o‘qituvchi
G.Komilova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
K.Rixsiyeva – o‘qituvchi
D.Maxkamova – o‘qituvchi
O.Nurullayeva – o‘qituvchi
P.Nabiyeva – o‘qituvchi
Z.Muzaffarova – o‘qituvchi
Z.Davronova – o‘qituvchi
S.Abdurahmanova – tayanch doktorant

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiya”sida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-yilning 19-oktabr kuni ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida tashkil qilingan ***“O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari”*** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallarini o‘z ichiga oladi.

Maqolalar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, turkologiya, shevashunoslik, lug‘atshunoslik, o‘zbek tilshunosligidagi zamonaviy yo‘nalishlar masalalariga bag‘ishlangan. Maqolalarda o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini yoritish, mumtoz manbalardagi tilshunoslikka doir qarashlarni o‘rganish, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvopoetika, lingvofolkloristika, lingvodidaktika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotlar olib borish, til nazariyasi va amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik muammolarini tahlil qilish o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Mazkur to‘plam tilshunoslikka doir masalalarni o‘zbek tili tarixi va bugungi taraqqiyotini uyg‘unlikda hamda integratsiya asosida tadqiq qilishga yo‘naltiradi.

Mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2022-yil 25-avgustdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (1-sonli bayonnoma).

etilgan. Ushbu turkiy so'zning ma'no ko'lami ham boshqa ma'nodoshlaridan ko'ra kengroqligi bilan ajralib turadi.

Ba'zi hollarda o'quvchi matnni idrok etish jarayonida nomuvofiqlikka duch kelishi mumkin. Bunda u o'zi uchun notanishligi yoki ma'nosini aniq ilg'ay olmagan tufayli biror so'zni g'aroba deb qabul qiladi. Ammo, aslida, muallif nazarda tutgan ma'no butkul boshqa bo'lishi ham mumkin. Misol uchun:

Nun boshinda shamra yanglig'dur qoshing uzra girih,

Oraz uzra nuqta mislidur uzoring uzra xol

baytidagi «shamra» so'ziga lug'atlarda «saxiylik, saxovat»; «ukrop urug'i, ziravor sifatida ishlatiladigan xushbo'y ko'kat, oshko'k» deb izoh berilgan. Baytdagi «nun boshining shamra»si ma'nosidan lug'atlardagi muqobillar ancha uzoqligi ayon bo'ladi. Agar yuqorida keltirilgan ma'nolarga asoslanilsa, «shamra» so'zi matnda o'rinsiz ishlatilishi bilan nutqiy nuqson – g'arobaga yo'l qo'yilgan bo'lib chiqadi. Ammo bu so'zni yozuv tarixiga oid istiloh tarzida qabul qilish obyektiv yondashuv bo'la oladi. Istilohlar esa, asosan, aynan keltirilishi har qanday til uchun mashhur qoidadir.

Demak, xulosa qilish mumkinki, turkiy til fasohatini ta'minlashda mumtoz davrlarda yashab ijod etgan adiblarning o'z ilmiy yondashuvi mavjud bo'lgan. Ular o'z asarlarida turkiy tilshunoslikning nazariy muammolari bilan birga amalda qo'llanishi xususida ham e'tiborli ma'lumotlar taqdim etgan. Matnlarni poetik idrok etishda ayni xususiyatlarga asoslanish katta foydalar berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. الخطيب جلال الدين عبد الرحمن بن محمد. المفتاح تلخيص. بيروت. العصرية المكتبة. ٢٠١٤م.
2. Шарифов З. Балоғат фани: Баён ва бадиъ илмлари. –Т.: Мовароуннахр, 2014.
3. Bulut, Ali. Belâgat terimleri sözlüğü. – İstanbul, 2015.
4. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.1. – Т.: Фан, 1987.
5. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Т. 1. – Т.: Ўзадабийнашр, 1963.

HAYDAR XORAZMIYNING "GULSHAN UL-ASROR" MASNAVIYSIDA ARABCHA O'ZLASHMA QATLAMGA OID LEKSEMALAR IFODASI THE EXPRESSION OF LEXEMES RELATED TO THE ARABIC ASSIMILATION LAYER IN THE MASNAVI "GULSHAN UL-ASRAR" BY HAYDAR KHORAZMI

Nilufar Tashmatova*

Annotation. This article classifies and analyzes the taken from another language words of Haydar Khorezmi's "Gulshan ul-asror" masnavi, one of the mature representatives of our classical literature, who lived and worked in Khorezm in the late XIV and early XV centuries. It is natural that the interaction, neighborliness and trade relations of peoples of different languages have an impact on the development of their languages, first of all, on their vocabulary. In general, it is expedient to analyze foreign words in the lexicon of Turkic languages by dividing them into two groups:

- 1) ancient (pre-Islamic) period. It is characterized by Sanskrit, Sogdian and Chinese elements;
- 2) relatively new (after the invasion of Islam and the Mongols) period.

In this research, we study the state of the lexemes of the self-identification layer presented in the Masnavi in a relatively new (after the Islamic and Mongol conquest) period. This group includes Arabic, Persian-Tajik and Mongolian adaptations.

* O'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, tashmatovanilufar10@gmail.com

Key words: *Turkish, Uzbek, Arabic, Appropriation, Masnavi, phrase, lexeme, word, language.*

Tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalar sodir bo'ladi. Buning natijasida tillarning lug'at tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi so'zlar bilan boyib boradi. Darhaqiqat, o'zbek xalqi bilan hamohang tarzda o'zbek tili ham o'zining tarixiy rivojlanishida ko'plab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada bo'ldi. Shu bois o'zbek tili lug'at tarkibining ma'lum qismini o'zlashgan so'zlar tashkil etadi.

O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida ichki imkoniyatlar muhim manba hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki imkoniyatlariga tayanib ish ko'rmaganidek, o'zbek tili uchun ham faqat o'z so'zlari va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. O'zbek tili so'z boyligining takomillashuvida tashqi manba katta rol o'ynaydi. Umuman, har qanday til sof holda yashay olmaydi. Binobarin, turli tillarga mansub xalqlarning o'zaro hamkorligi, qo'shnichilik va savdo-sotiq aloqalari ular tillarining taraqqiyotiga, birinchi navbatda, leksikasiga o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Natijada so'z almashish va o'zlashtirish holatlari yuz beradi. Albatta, ushbu jarayon tarixiy sharoitlarga bog'liq tarzda turlicha kechadi.

Boshqa qardosh turkiy tillar singari, o'zbek adabiy tili uchun ham so'z o'zlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid o'zlashmalarning o'zbek adabiy tiliga kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan o'zbekchaga o'girilgan badiiy tarjimalarning roli sezilarli edi. Fors-tojik tili: bu davrda ma'muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so'zlarining o'zbek adabiy tiliga o'zlashishida vositachi vazifasini bajaradi. Tabiiyki, chet so'zlarning turli soha leksikasiga o'zlashishi farqlanadi. Jumladan, harbiy terminologiya mo'g'ulcha so'zlar hisobiga kengaygan bo'lsa, ma'muriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa, asosan, arabcha, forsha-tojikcha o'zlashmalar orqali boyigan. Umuman, turkiy tillar leksikasidagi chet so'zlarni ikki guruhga taqsimlab tahlil etish maqsadga muvofiq:

- 1) qadimiy (islomgacha bo'lgan) davr. Bunga sanskritcha, sug'dcha va xitoycha unsurlar xos;
- 2) nisbatan yangi (islom hamda mo'g'ullar istilosidan keyingi) davr. Mazkur guruhdan arabcha, fors-tojikcha va mo'g'ulcha o'zlashmalar o'rin egallaydi.

Turkiy tillar so'z boyligida sug'dcha, sanskritcha, xitoycha o'zlashmalarning paydo bo'lishiga turkiy xalqlarning qadimdan sug'd, hind, xitoy, xorazm xalqlari bilan yaqin aloqalari mahsuli sifatida baho beriladi. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yashab ijod etgan Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" masnaviysida ham o'zlashma qatlamga doir leksemalar o'z ifodasini topgan. Bu esa o'sha davr leksikasi haqida, oz bo'lsa-da, ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Biz ushbu tadqiqotimizda masnaviyda keltirilgan o'zlashma qatlamga oid leksemalarning nisbatan yangi (islom hamda mo'g'ullar istilosidan keyingi) davr holatini o'rganamiz. Mazkur guruhdan arabcha, fors-tojikcha va mo'g'ulcha o'zlashmalar o'rin egallaydi.

Ma'lumki, o'zbek tiliga arabcha so'zlarning kirib kelishi O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini bilan aloqador. Arablar VII asrning ikkinchi yarmi – VIII asrda O'rta Osiyoni bosib olganidan so'ng yerli aholiga majburiy ravishda islom dinini qabul qildirgan. Maktab, madrasa, masjid va idora ishlari, asosan, arab yozuvi hamda arab tilida olib borilgan. Shu tariqa, arab tilining kitobiy til va davlat tili bo'lib qolish an'anasi ancha vaqtgacha davom etib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy aholining arab tilini puxta o'zlashtirishiga, shuningdek, o'zbek-arab ikki tilliligi (bilingvizm) hodisasining yuzaga kelishiga olib keldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, arablar hukmdorligi davrida arab yozuvi mahalliy yozuvlar (turkiy run, xorazm, sug'd)ni siqib chiqardi. Ilmiy va badiiy asarlar arab tilida bitildi. Natijada mahalliy aholi vakillari o'z ona tili bilan bir qatorda arab tilida ham yozadigan va gapira oladigan bo'ldi. O'rta Osiyoning mashhur olimlari – Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Ahmad Farg'oniy o'z ilmiy asarlarini arab tilida yozgan.

Yevropada lotin tili bir vaqtlar xalqaro til, ilm-fan tili bo'lganidek, arab tili ham Osiyoda uch yuz yil davomida shunday mavqeda bo'lgan. Bunda o'zbek, tojik olimlari, yozuvchilarining roli juda kattadir... Agar tojik so'zlari o'zbek xalqiga so'zlashuv tili, adabiyot

va boshqa yo'llar orqali o'zlashgan bo'lsa, arab so'zlari, birinchidan, kitob, madrasa, din, ikkinchidan, tojik tili vositasida kirgan. Arab tilining o'zbek tiliga kirib kelishi, ayniqsa, VII-VIII asrlarda ko'proq yuz bergan. XIV-XV asr eski o'zbek tilida arab tili leksikasi sezilarli qatlamni tashkil etadi. Shu bois Navoiy asarlari tilida ma'lum tarixiy sabablar natijasida arab va fors-tojik tillaridan olingan so'z va iboralar har qachongidan ham ko'p. Shoir poetik va ilmiy asarlari tilidagi so'z boyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan so'zlar tashkil qiladi, fors-tojik leksik unsurlari ham 18-20 foizgacha boradi.

O'zbek tiliga arab tilidan so'z olish, asosan, o'zbek-arab blingvizmi davrida (VII-IX asrlarda) kuchli bo'ldi. Keyingi davrlarda o'zbek tiliga yangi so'zlar sezilarli darajada qabul qilinmagan, keyinchalik esa o'zbek tiliga kirgan arabcha unsurlardan bir qismining eskirishi va o'zbek tilidan chiqish jarayoni yuz berdi. Alisher Navoiy tilida ishlatilgan ko'pgina arabcha so'z va iboralar XIX asr o'zbek tilida, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydi. Arab tilining o'zidan bevosita so'z olish XI asrdayoq deyarli to'xtagan edi. Ammo turli davrlarda arabcha manbalarda, shuningdek, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida saqlangan arabcha so'z guruhlari u yoki bu davrlarda faollashib turadi. Masalan, XX asr boshlarida o'zbek tilida ilmiy terminlar sifatida faol istifoda etilgan arabcha so'zlar ana shu keyingi manbalardan olingan. Yuqorida qayd etilganidek, turli munosabatlar orqali arab so'zlari turkiy tillarga o'zlashgani kabi, o'z navbatida, turkiy leksemalar ham arab tili lug'at tarkibidan o'rin egallagan. Masalan, *qovurma*, *yotoq* singari. Hatto -chi, -lik, -siz affikslari so'z tarkibida o'tib, arabcha leksemalarga qo'shilib, yangi so'zlar yasagan.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yaratilgan "Gulshan ul-asror" asarida payg'ambarlar va ular hayoti va faoliyati ifodalanganligi, Qur'oni Karim, Hadisi sharif hamda boshqa diniy manbalar asosida yaratilganligi bois, unda talaygina arabiy so'zlar uchraydi. Asar leksikasida ifodalangan arabcha istilohlar soni jihatdan turkiy leksemalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Tadqiqot obyekti qilib olingan ushbu masnaviy leksikasida jamiyatning turli sohalariga oid arabcha so'zlar mavjud. Asarda diniy tushunchalarni ifodalovchi leksemalar ancha faol qo'llangan. Obida lug'at tarkibida "sig'inish, topinish" ma'nosi **ibādat** o'zlashmasi orqali yoritilgan: *Nechaki yo'q bizda ibodat oti, Shukrki borbizdur aning ummati.* (2A-2). Bu so'z birinchi marta Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asarida istifoda etilgan: *Ibādat riyā boldi.* (DTS, 201). Masnaviyda bu leksemaning arabcha *toat* sinonimi ham ishlatilgan: *Toat uchun zabt etayin go'shaye, Har nimadin yig'dirayin to'shaye.* (17B-11). 'ibādat > ibādat "sig'indi", "sajda qildi" ma'nosini anglatuvchi 'abada fe'lining I bob masdari bo'lib, "sig'inish", "Ollohga qulluq qilish" ma'nosini bildiradi (O'TEL, II,154).

Asarda "namozni boshqaruvchi, namozda oldinda turuvchi kishi" **imām** deb nomlangan: *Jumla mazohibda saxiydur valiy, Barcha saxiylarning imomi Ali.* (13B-11). *imām* > *imām* asli "oldda turdi" ma'nosini anglatuvchi *amma* fe'lining "namoz o'quvchilarga rahbarlik qildi" ma'nosi bilan III bob shaklidan hosil qilingan masdar bo'lib, "namoz o'quvchilarga rahbarlik qiluvchi kishi" semasini ifodalagan (O'TEL,II,166)

Qiyo(a)mat o'zlashmasi "bu dunyo tugab, u dunyoda hamma tirilib, so'roqqa to'planadigan kun" ma'nosini bildirgan: *Ko'zima keng dunyo bo'lib tangu tor, Ro'zi qiyomatni ko'rib oshkor.* 3B-8. Leksema dastavval "Qutadg'u bilig" asarida qayd etilgan: *Qiyāmatta kōrkūt toluntek yūzin-qiyomat kunida oydek yuzini ko'rsatgin* (DTS, 441) *Qiyāmat*>*qiy(a)mat* "tirildi" ma'nosini ifodalovchi *qāma* fe'lidan yasalgan (O'TEL,II,533).

Masnaviyda "shohidlik, guvohlik" ma'nolarini yoritishda **shaho(a)dat** istilohidan foydalanilgan: *Ishq bu hangomada urdi nido, G'aybu shahodatqa yoyildi sado.* 2A-6. *Shahadat* ko'p ma'noli **shahida** fe'lidan "yozma tarzda guvohlik berdi" ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib, arab tilida "yozma guvohnoma" ma'nosini anglatadi; hozirgi o'zbek tilida bu so'z ayol kishining ismi sifatida ishlatiladi (O'TEL,II,505).

Haydar Xorazmiy Ollohni tanimaydigan g'ayridinni **kofir** deya zikr qilgan: *Zohiru botin bila oshuftamen, Mo'min egach kofiri nuhuftamen!* (Hoshiya12B-23,24). Bu so'zga ilk marotaba Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida duch kelamiz: *Yag'ylag'u kāfir yag'ıyın qatıg'- dushman kofirlarga ayovsiz kurashish lozim* (DTS, 288). *Kāfir*>*kāfir* ko'p

ma'noli **kafara** fe'lining "dinga ishonmadi" ma'nosi bilan hosil qilingan 1 bob aniq nisbat sifatdoshi bo'lib, o'zbek tilida "Ollohgа, dingа ishonmaydigan", "g'ayridin" ma'nolarini anglatadi (O'TEL, II, 204).

Avval leksemasi masnaviyda "birinchi, dastlab, boshida" kabi ma'nolarni anglatgan: *Avval angа mo'jizatek so'z kerak, Yoxu ko'rib anglag'udek ko'z kerak!* 6B-4; *Xoja oyittikim: "Uzatma so'zung, Bo'z beroyin ko'rmamish avval ko'zung!* Hoshiya 12B-7,8. O'zlashma ilk bor "Hibatul-haqoyiq" asarida "birinchi navbatda", "oldin" semalarida keltirilgan: *Arъ zahri tatqu asaldъn avval- asal yeyishdan oldin ari zahrini totib ko'rish kerak* (DTS, 76). XIV asr Xorazm manbalarida quyidagi ma'nolarda ifodalangan: "birinchi, dastlab": *Avval kōrjshkāniъ aytur* (Mn, 291a11); "boshida": *Tekmā fasl avvalinda bir hadis keltȳrdȳk* (NF, 2a12); "boshqatdan, qaytadan" *Sharbatny ul habib ilindān alȳb ichtȳm dag'ы umrni avvaldān hisāb etdim* (G, 121b11). Bu arabcha so'z avvalu shakliga ega bo'lib, o'zbek tiliga fathali hamzali a tovushiga almashtirib, so'z oxiridagi u unlisini tashlab qabul qilingan avvalu >avval (O'TEL, II, 9).

Masnaviyda keltirilgan o'zlashma leksemalar o'sha davr ma'naviy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy hayotini o'zida aks ettirish bilan birga tildagi o'zgarishlarni ham ifodalab berishga xizmat qiladi. Har qanday tilning so'z boyligida o'zlashmalarning paydo bo'lishi xalqlarning yaqin aloqalari mahsuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haydar Xorazmiy. "Gulshan ul-asror" (Mahzan ul-asror) qo'lyozmasi. O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. № 37.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи.-Т.: Университет, 2007.
3. Баскаков Н.К. К проблеме китайских заимствований в тюркских языках//Советская тюркология, 1987, №5.
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари.-Т.:Фан, 1985.
6. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.-Т.: Ёзувчи, 1991.
7. Дадабоев Х. Ўзбек адабий тили лексик таркибининг ўзлашмалар ҳисобига бойиши//Тошкент вилояти давлат педагогика институти педагог-ҳодимларининг анъанавий илмий-назарий ва амалий-услубий анжумани маърузалари.-Ангрен, 2007.
8. Dadaboev H, Holmurodova M. "Qutadg'u bilig"dagi so'zlarning o'zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug'ati.-Т., 2018.
9. Древнетюркский словарь.-Л.: Наука, 1969.
10. Исхаков М.Элементы согдийского языка в современном узбекском языке//Историко-культурные контакты народов алтайской общности: XXIX сессия PIAC.-Т.:1986. II.Лингвистика.-М.: Наука, 1986.-с.1986.
11. Йўлдошев И.Ўзбек китобатчилиқ терминологияси.-Т.: Фан, 2004. - Исхаков М.Элементы согдийского языка в современном узбекском языке//Историко-культурные контакты народов алтайской общности: XXIX сессия PIAC.-Т.,1986.II.Лингвистика.-М.: Наука, 1986.
12. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк.Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III.-Т.: Фан, 1960-1963.
- 13.Кутб. Хосрав и Ширин// Фозылов Э.Староузбекский язык.Хорезмийские памятники XIVв. I-II.-Т.: Фан, 1966-1971.
14. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорлиқлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши.-Т.: Тошкент давлат шарқшунослиқ институти, 2006.
15. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997.
16. Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати(араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар).-Т.: Университет, 2003.
17. Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати I-II.-Т.: Университет, 2000-2001.
18. Хўжаев А. Буюк ипак йўли. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

Abdullayeva N.	Analysis of proverbs and sayings with phytonyms in comparied languages	322
Mamarasulova M.	O'zbek xalq alla matnlaridagi o'xshatishlar tasnifi	324
Ortiqov R.	O'zbek shevalaridagi ikkilamchi nominatsiya hodisasining milliy qadriyat sifatida gavdalanishi	327
IV. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
Mustafa S.	Özbek Türkçesi Öğrenen Türkiye Türkü Öğrencilerin Karşılaştıkları Bazı Sorunlar	331
Yusupova Sh.	Til ta'limida so'zning o'rni	337
Kalanova S., Kalanova D.	Uzbek language education in south Korea universities	341
Ehsonullo Q.	O'zbek tilining Afg'oniston bosma yetkarmalarida qo'llanishi	345
Nabiyeva R.	Globalashuv va tillarning o'zaro ta'siri haqida	347
Safarov F.	Istiqlol davrida o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi	349
V. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
Dadaboyev H.	“Devonu lug‘otit turk”da ayol jinsining ifodalanishi	353
Abdushukurov B.	“Qisasi Rabg‘uziy”dagi ba’zi fe’l-leksemalarning ma’no nozikliklari	358
Can M.	The Transition of Turks Living under the Domination of Soviet Russia from the "Arabic Alphabet" to the "Latin Alphabet"	362
Xudoyberdiyev J	Arab alifbosi asosidagi tatar yozuvining islohi haqida	366
Muhammadiyeva D. Davletova Q.	Erkin Vohidovning “So‘z latofati” asaridagi ayrim etimologik tahlillar xususida	370
Ubaydullayev A.	“Devoni hikmat” asari – qarluq-xorazm adabiy tilining muhim yodgorligi sifatida	373
Tursunov A.	Tilshunoslik tarixi va bugungi kun taraqqiyot bosqichlari	378
Hasanov A.	O'zbek adabiy tilidagi leksik bo'shliqlarning to'ldirilish tarixiga nazar	384
Bobojonov G'.	Turkiy til fasohati	388
Tashmatova N.	Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida arabcha o'zlashma qatlamga oid leksemalar ifodasi	390
O'razova I.	XIV asrning ikkinchi yarmiga oid turkiy yozma manbalar tadqiqi	394
Ro'ziyev Q.	O'zbek adabiy tilida taom nomlarining o'rganilish tendensiyalari	396
Botirova M., Obidjonova Z	Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinası” romanida tarixiy va arxaik so‘zlar tahlili	400
Babazadə R.	Türk Dilində Yazılmış İlk Yüz Hədis Toplusu “Yüz Hədis və Yüz Hekayə”	402
Ho-Lim Song	Markaziy Osiyo va Onado‘li turk tili leksikasining qiyosiy tadqiqi: “Shajarayi turk” tarjimalari misolida	404